

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

ATROFIMIZDAGI OLAM FANINI BIRINCHI SINIF O‘QUVCHILARIGA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ORQALI O‘RGATISH.

O‘roqova Sharofatxon Saidqul qizi o‘qituvchi,
Termiz davlat pedagogika instituti, iqtidor1990@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1-sinf o‘quvchilariga zamonaviy texnologiyalar orqali atrofimizdagi olam fanini o‘rgatish masalasi keng yoritib berilgan. Unda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaralari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik madaniyat, o‘quvchi, o‘qituvchi, atrofimizdagi olam, intellektual salohiyat, Finlyandiya ta’lim tizimi, pedagogik texnologiya.

Аннотация. В данной статье подробно рассмотрен вопрос обучения первоклассников науке об окружающем мире посредством современных технологий, рассмотрены преимущества использования современных педагогических технологий.

Ключевые слова: экологическая культура, студент, педагог, окружающий мир, интеллектуальный потенциал, финская система образования, педагогические технологии.

Annotation. In this article, the issue of teaching the science of the world around us through modern technologies to the students of the 1st grade is widely covered. It also discusses the benefits of using modern pedagogical technologies.

Key words: ecological culture, student, teacher, world around us, intellectual potential, Finnish education system, pedagogical technology. экологическая культура, студент, педагог, окружающий мир, интеллектуальный потенциал, финская система образования, педагогические технологии.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi «Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorida maktab ta’limi bo‘yicha ilg‘or davlatlar tajribasini, xususan Finlyandiya ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha qator vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida joriy yilning 16 fevral kuni Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasida «Umumta’lim fanlarini o‘qitishda Finlyandiya tajribasi» mavzusida onlayn vebinar tashkil etildi. Bugungi kunda Ta’lim inspeksiyasi ekspertlari tomonidan ushbu davlat dasturlarini milliy o‘quv dasturlari bilan qiyosiy taqqoslash ishlari amalga oshirilmoqda[1,2]. Bu esa o‘z navbatida ularni ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirishga xizmat qiladi. Uchrashuvda, shuningdek, Finlyandiya bilan ta’lim tizimining boshqa muhim bo‘g‘inlari o‘quv dasturlarini takomillashtirish, darsliklar yaratish, pedagoglar malakasini oshirish, innovatsion-pedagogik metodlarni takomillashtirish va tatbiq qilish kabi ko‘plab yo‘nalishlarda keng doiradagi ishlarni amalga oshirishda yaqindan hamkorlik qilish istiqbollari muhokama qilindi. Bugungi kunda bizlar “Yangi hayot uchun-yangi o‘zbekiston uchun”shiori ostida yashar ekanmiz, o‘z kelayotgan yosh–avlodning ona vatanga, oilaga mehr-muhabbatli qilib tarbiyalash hamda ularning komil inson bo‘lib shakllanishida o‘z hissamizni qo‘shmog‘imiz bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Ayniqsa endi o‘shib kelayotgan maktabgacha ta’limdan boshlang‘ich sinfga qadam qo‘ygan bolajonlarimizga atrof-muhitning inson yashash -muhitida juda katta o‘rin tutishini tushuntirmog‘imiz zarur[3,4]. 1-sinf Atrofimizdagi olam kitobida o‘quvchilarga tevarak-atrof haqidagi tushunchalarni o‘rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish juda yaxshi samara beradi.o‘quvchilarni guruhlariga bo‘lib,”Guruhlar bilan ishlash texnologiyasi”asosida «**Harflarni tanlab so‘z tuz**» metodidan foydalanish.Ushbu metodning bajarilish tartibi quyidagicha:

Xattaxtaning oldingi qismiga bir xil kattalikdagi harflar kartatekasi terib qo‘yilgan. Ularda aralash berilgan harflar ishtirokida Lola , binafsha, atirgul so‘zlarini tuzish talab qilinadi. Ushbu harflar uch xil rangdagi kartonga yoziladi. Harflarni endi tanib olayotgan o‘quvchilarga mo‘ljallanadi. O‘quvchilar dastlab o‘qituvchi topshirig‘iga asosan 1-bola yashil rangdagi, 2-o‘quvchi sariq rangdagi 3-o‘quvchi ko‘k rangdagi; harflarni tanlaydi. O‘zlari to‘plagan harflarni ma‘lum bir tartibda joylashtirib chiqishadi.o‘yin shu tartibda davom etadi.Ushbu metodning afzalligi o‘quvchilarni tabiatga bo‘lgan mehr-muhabbatini orttirish,ham bolaga savod o‘rgatish,ham tabiatdagi har bir o‘simlik va buyumlarga ,yer,havo,tuproq,jonli va jonsiz mavjudotlarning noyob turlari haqida tasavvurlarini kengaytiradi,intellektual salohiyatini rivojlantirib borishida yordam beradi.Guruhlar bilan ishlash esa har bir bola ushbu metodni vaqtdan unumli foydalangan holda bajarish imkonini beradi[5].

1- sinf Atrofimizdagi olam kitobidagi 16-betdagi “o‘simliklarning kuzgi hayoti”, 18-betdagi “o‘simliklarning kuzgi olami” mavzularini “**Zanjir**” metodidan foydalangan holda o‘quvchilarga o‘rgatsak juda yaxshi samaraga erishamiz.Zanjir metodining qo‘llanilish tartibi quyidagicha:

o‘quvchilarga oldin tushunchani berib bo‘lgandan so‘ng ulardan ushbu mavzuni qay darajada tushunilganini ko‘rib chiqish maqsadida “Zanjir” metodidan foydalanamiz. Bunda o‘quvchilarni uch guruhga bo‘lib,har bir guruhdagi o‘quvchilarni tik turgan holatida kuzda pishib yetiladigan mevalar nomini avval birinchi o‘quvchi aytadi masalan: olma,ikkinchi o‘quvchi davom ettiradi:olma-anor,uchinchi o‘quvchi aytadi: olma-anor va hokazo shu tartinda birinchi guruhni yakunlab olamiz.Ushbu bosqichda ikkinchi guruh poliz ekinlari nomini aytadi.Uchinchi guruh sab-zavotlarni aytish topshirig‘ini beramiz.Bu metodimiz orqali biz o‘quvchilarni mavzuni mukammal bilishi bilan birgalikda,mavzuni chuqur tahlil qilish qobiliyatlarini ham shakllantiramiz. Birinchi sinf o‘quvchilarida o‘tilgan mavzuni qay darajada anglab olinganlik qobiliyatini shakllantirish maqsadida “**Svetofor**” metodidan foydalanish ham juda yaxshi samara beradi.Bu metodning bajarilish usuli:

Ma‘lum mavzuni o‘rganish vaqtida o‘qituvchi u bo‘yicha savollarni tayyorlaydi (5-7 ta, mavzuning murakkabligiga qarab). Sinf o‘quvchilari 3 guruhga bo‘linadi.Savollar qiyinlik darajasiga qarab svetafor chiroqlariga ilinadi.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Murakkab savollar qizil chiroqqa, oʻrtacha murakkablikdagi savollar sariq chiroqqa, oson savollar esa yashil chiroqqa ilinadi [1,2,7].

Qoʻyiladigan ballar ham savollar qiyinlik darajasiga qarab qoʻyiladi. oʻquvchilar oʻz xohishiga qarab savol tanlash imkoni beriladi. Har bir guruhga oʻyin oldidan oʻqituvchi tomonidan 10 balldan qoʻyiladi. Qizil chiroqdagi savollarga javob bergan oʻquvchi jamoasini ballari 10 ga koʻpaytiriladi, javob bera olmasa 10 ga boʻlinadi. Sariq chiroqdagi savollarga javob bergan oʻquvchi jamoasini ballari 10 ball qoʻshiladi, javob bera olmasa 10 ga boʻlinadi.

Yashil chiroqdagi savollarga javob bergan oʻquvchi jamoasini ballari 10 ga koʻpaytiriladi, javob bera olmasa 10 ball ayriladi. Oʻquvchilarga oʻylab chiqish uchun 1 daqiqa vaqt beriladi. Agar savol muhokama qilinishni talab qilsa, ishtirokchilardan oʻz qarorlarini asoslab berish iltimos qilinadi. Eng koʻp ball toʻplagan guruh gʻolib sanaladi. [7]

Xulosa oʻrnida shuni aytmoqchimanki, ushbu metodlar barcha oʻquvchilarning fikrini bilib olishga imkon beradi: hech kim oddiygina tomoshabin boʻlib qolmaydi. Ishtirokchilarning koʻpchiligida oʻyin boshlanganidan keyin birozdan soʻng nuqtai nazardagi tafovutlar sabablarini bilish va oʻz fikrini asoslash boʻyicha kuchli qiziqish paydo boʻladi. Oʻquvchilarning nutqini, oʻz nuqtai nazarini himoya qilish, asoslash qobiliyatini rivojlantiradi, bilish savodxonligi ham oshiriladi.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘roqova S. MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHNING ASOSIY OMILI //Евразийский журнал академических исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 120-123.
2. O‘roqova S. S. TARIXIY MADANIY YODGORLIKLARNING O‘QUVCHILAR MA’NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI //Евразийский журнал академических исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 124-128.
3. Орокова Ш. Milliy qadriyatlarimizni yuksaltirish–sog‘lom bola va barkamol avlodni tarbiyalashning asosiy omili //Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 388-391.
4. Норбутаев Х. Б. Формирования Экологического Знания У Школьников Изучение Учебных Материалов По Физики //Апробация. – 2017. – №. 2. – С. 95-96.
5. Норбўтаев Х. Б. Бошланғич синфларда фанлараро экологик тарбия //Современное образование (Узбекистан). – 2018. – №. 11. – С. 53-58.
6. Shabbazova D. Model of personal value for primary school literacy lessons. – 2022.
7. Grigoryanski “1-sinf Atrofimizdagi olam”. Toshkent-2015